



## XALQ DEPUTATLARI DANG'ARA TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 24-may

VI-92-74-11-155-K/24

Dang'ara tumani

### Dang'ara tuman mahalliy byudjetining 2024-yil I-chorakdagi ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 165-moddalari va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283-sonli Farmoni hamda 2024-yil 26-apreldagi VI-67-57-11-0-K/24-sonli "Farg'ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil I-chorakdagi ijrosi" Halq Deputatlari Farg'ona viloyati kengashining hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining hisobotini tinglab, Xalq deputatlari tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. Farg'ona viloyati Dang'ara tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i K.Latipovning Dang'ara tuman mahalliy byudjetining 2024-yil I-chorakdagi ijrosi to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Dang'ara tumani mahalliy byudjetining 2024-yil I-chorakdagi ijrosi to'g'risidagi hisobot tasdiqlansin.

Bunga ko'ra:

Dang'ara tuman mahalliy byudjetining 2024-yil I-chorak mahalliy byudjet daromadlari 17,5 mlrd. so'm va mahalliy byudjet xarajatlarining kiritilgan o'zgartirishlar bilan birga 55,4 mlrd. so'm miqdoridagi ijrosi ma'qullansin.

Jumladan;

Dang'ara tumani mahalliy byudjeti xarajatlarining 2024-yil 1-choragi uchun aniqlangan rejasini 55,4 mlrd.so'mni (shundan erkin qoldiq mablag'lari rejasini 0.8 mlrd. so'm tashkil etib, hisobot davrida 48.5 mlrd so'mlik xarajatlar amalga oshirilganligi hamda tuman mahalliy byudjeti daromadlarining aniqlashtirilgan prognoz ko'rsatkichlari 17,5 mlrd so'mni tashkil etib, amalda 17,5 mlrd so'mga ya'ni (100%) ga bajarildi. 2024-yil 1-chorakda 29,3 mln.so'mga daromadlar rejasini ortig'i bilan bajarilgan bo'lib, ushbu mablag'ni amaldagi tartibga muvofiq, Tashabbusli byudjet jamg'armasiga 8,7 mln.so'm, qolgan qismini tuman hokimligining Qo'riqlash xizmatidan xosil bo'lgan kreditor qarzdorlikni so'ndirish uchun 20,6 mln so'm mablag'lar ajratilsin.

3. Dangʻara tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (K.Latipov), tumandagi byudjet mablagʻlari oluvchilari hamda tuman hokimligi bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Administratsiyasining 2024-yil 12-apreldagi 03-RA 1-5365-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-apreldagi 03/1-1180-sonli topshiriqlariga asosan oʻtkazilgan xatlovlar va tegishli hisob-kitoblarga koʻra, byudjet tashkilotlarining samarasiz xarajatlari, jumladan amaldagi meyorlarga zid boʻlgan va samarasiz shtat birliklarini qisqartirish choralari koʻrsinlar.

Bunga koʻra, mahalliy byudjetlar boʻyicha maqbullashtirilgan xarajatlarni tegishli topshiriqlar ijrosini taʼminlashga qayta yoʻnaltirish boʻyicha Xalq deputatlari tuman kengashi hamda tuman hokimligiga taklif kiritilsin.

4. Tumandagi barcha masʼul tashkilotlar byudjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va masʼuliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning toʻliq tushimini taʼminlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qoʻshimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida eʼtibor qaratsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi (K.Latipov), tuman soliq boʻlimi (A.Shamsiddinov), tegishli tashkilotlar hamda tumandagi byudjet mablagʻlari taqsimlovchilari bilan birgalikda xalq deputatlari tuman Kengashiga mahalliy byudjetning ijrosi toʻgʻrisida har chorakda axborot berib borilishini taʼminlasin.

6. Quyidagilar:

soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazani toʻliq qamrab olish, soliqlar yigʻilishi darajasini oshirish, mavjud zaxiralarni safarbar etish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali tegishli byudjet daromadlari prognozining bajarilishini taʼminlash;

byudjet mablagʻlaridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda uni tejash, byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet mablagʻlaridan foydalanishning natijadorligi boʻyicha hisobdorlik tizimini kuchaytirish;

birinchi navbatda moliyalashtiriladigan (ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar) xarajatlarni oʻz vaqtida moliyalashtirish va kreditor qarzdorlikka yoʻl qoʻymaslik;

mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat soliq xizmati organlari rahbarlari byudjet daromadi prognoz koʻrsatkichlarini ortiqcha toʻlangan va undirilgan soliq summalari hisobiga bajarilishiga yoʻl qoʻymasliklari boʻyicha qatʼiy ogohlantirilganligi alohida koʻrsatib oʻtilsin.

7. Tumandagi byudjetdan mablagʻ oluvchilari byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, ajratilayotgan mablagʻlardan maqsadli foydalanish hamda byudjet mablagʻlari boshqarilishi va byudjet hisobi yuritilishini taʼminlash boʻyicha shaxsan javobgarlik belgilanganligini nazarda tutsin.

Bunda, ichki audit xizmatlari faoliyati yoʻlga qoʻyilgan tumandagi byudjet mablagʻlari oluvchilari jumladan, Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi hamda Sogʻliqni saqlash boʻlimining ichki audit xizmatlari tomonidan har chorakda amalga oshirgan nazorat tadbirlari natijalari boʻyicha Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi hamda Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berishi belgilab qoʻyilsin.

Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV  
SHUXRATJON  
NURMUXAMMADOVICH